

O'QUV DASTUR PASPORTI

O'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi SSV huzuridagi uzluksiz kasbiy ta'lim muassasalararo muvofiqlashtiruvchi Kengashda ko'rib chiqilgan va 2024 yil 06 iyuldagi №1-sonli bayonnomasi asosida tasdiqlangan
Amal qilish muddati 2026 yil gacha

Ta'lim muassasasi nomi	Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi
Kafedra / bo'lim	Patologik anatomiya va sud tibbiyoti
O'quv dastur nomi	«Sud tibbiy ekspertizaning tanlangan masalalari»
O'qish turi	Mavzuiy malaka oshirish
O'quv dastur muallifi/ mualliflari	Q.A.Maxsumxonov, K.A.Akbergenova.
Siklning umumiy soati	144 kredit
Siklda dars beradigan o'qituvchi va trenerlar	



T.f.d, dotsent Q.A.Maxsumxonov



T.f.n, dotsent K.A.Akbergenova

Maqsad

Sud-tibbiy ekspertlarning sud-tibbiy ekspertizalarini o'tkazish ko'nikmalarini mustahkamlash, to'satdan o'lim va bolalar o'limi holatlarida xalqaro kasalliklar tasnifiga mos keladigan kasalliklarning nozologik shakllarini aniqlash, ularni sud-tibbiy tashxislash, kasallik, travma, zaharlanish holatlarining (jumladan, tugallangan suitsid holatlarini) kamaytirish va oldini olish bo'yicha profilaktik tadbirlar majmuasini amalga oshirish bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarini chuqurlashtirish va yangilash.

Siklga taklif qilingan mutaxassislar - kontingent	Davlat sud-tibbiy ekspertiza muassasalari sud-tibbiy ekspertlari uchun mo'ljallangan.
Sikl vazifalari	Sud-tibbiy ekspertizalari va tekshiruvlarni o'tkazish qoidalari, standartlari, amallarni bajarish yo'riqnomalari bilan ishlash ko'nikmalarini takomillashtirish; sud tibbiy tanatologiyaning maqsad va vazifalari, imkoniyatlarini klinik reanimatologiya va transplantologiyaga tadbiq etishni takomillashtirish; mexanik jarohatlar, o'tkir zaharlanish va kislorod tanqisligi holatlarida o'tkaziladigan murda ekspertizalarining o'ziga xos xususiyatlarini anglatish; zo'raki va to'satdan o'lim holatlarini KXT – 10 ga mos ravishda tashxislash tamoyillarini singdirish; sud-tibbiy ekspertlarning xayotiy va ilmiy tassavvurini shakillantirishda milliy-ma'naviy qadriyatlarimizni insonparvarlik moxiyatini ko'rsatish asosida, sud-tibbiy ekspertlarning ongiga singdirish.
Sikl tarkibi	1. Modul. Sud-tibbiy ekspertizalarini o'tkazish standartlari. 2. Modul. Tan jarohatining og'irlik darajasini sud-tibbiy baholash masalalari.
O'qish bazalari (asosiy)	Qo'shimcha bazalar (tasdiqlangan shartnoma asosida):

**1. Respublika sud- tibbiy ekspertiza
ilmiy-amaliy markazi**



**2. Respublika sud-tibbiy ekspertiza ilmiy-amaliy markazi Toshkent viloyati
filiali**



Asbob/uskunalar

